



VATANPARVAR



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini skaner qiling.



Vatan deb yonganlar so'nmagay

Vatan deb yonganlar so'nmagay aslo,
Xalqim deb kuyganning boqiydir umri.
Tunda yulduz bo'lib taratar ziyo,
Tonglarni uyg'otar jannatini nuri.

Mayin shabbodada yuzingiz silab,
Ruhingiz poyiga jur'at to'shaydi.
So'nik dilingizga umid bag'ishlab,
Zafarlarga chorlar tug'ga o'xshaydi.

Vatan deb yonganing o'chmas chirog'i,
Nomi asralgusi to hayot mangu.
Sharaf-shon, duoning yo'qdir sanog'i,
To mashhar el ichra boqiy yashar u.

Hurlikka fidolar so'nmagay abad,
Jasorat izlari millat qarog'i,
"Biz ham..." deb qad tutar minglab azamat,
Ularning da'vati mardlik sabog'i.

Elim deb yonganlar quyosh – so'nmas nur,
Ufqqa bosh qo'yib, qaytadi sahar.
Ular manguylikka daxldor axir,
Ular boqiylikka etganlar safar.

Vatan deb yonganlar so'nmagay aslo.

Zulfiya YUNUSOVA

SARA YIGITLAR

8-9

- XALQ VA ARMIYA YAKDILLIGI YO'LIDA
- VATAN TAQDIRIGA DAXLDORLIK HISSI
- ORZULAR MAQSADGA AYLANDI
- O'LMAS UMARBEOVNING "QIYOMAT QARZ" I

2021-yil 20-avgust, №33 (2940)

